

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TA'LIM-TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHINING O'RNI

THE ROLE OF THE TEACHER IN THE ORGANIZATION OF EDUCATIONAL ACTIVITIES IN PRESCHOOL
EDUCATIONAL ORGANIZATION

РОЛЬ УЧИТЕЛЯ В ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДОШКОЛЬНОЙ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Usmanova Maxfuza Sadikovna

JDPI katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyachining maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishida M. Montessori, IMEN kabi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy interfaol usullardan foydalanishi samarali natija berishi haqidagi fikrlar berilgan. SHuningdek, pedagogik texnologiyalar bilan sug'orilgan mashg'ulotlarda bolalar o'zlarini erkin his qilishlari, barcha topshiriqlarni bajonudil bajarishlari yoritib berilgan. Ushbu faoliyatlarni amalga oshirishda tarbiyachi ma'sul ekanligi maqolada yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim- tarbiya, IMEN, pedagogik texnologiyalar, erkinlik, ijodkorlik, tarbiyachi, faoliyat.

Аннотация: В статье представлена идея о том, что использование педагогических технологий, современных интерактивных методов, таких как М. Монтессори, ИМЭН, может быть эффективным в эффективной организации воспитательной работы при организации дошкольного образования. Также на уроках, орошаемых педагогическими

технологиями, подчеркивается, что дети чувствуют себя свободно и с удовольствием выполняют все задания. В статье говорится, что педагог несет ответственность за выполнение этих мероприятий.

Ключевые слова: образование, ИМЭН, педагогические технологии, свобода, творчество, педагог, деятельность.

Abstract: This article presents the idea that the use of modern interactive methods of pedagogical technologies, such as M. Montessori, IMEN, in the effective organization of educational work in the organization of preschool education. Also, in the lessons irrigated with pedagogical technologies, it is emphasized that children feel free to do all the tasks with pleasure. The article states that the educator is responsible for carrying out these activities.

Keywords: education, IMEN, pedagogical technologies, freedom, creativity, educator, activity.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi. Chunki, shaxs

kamolotining asosiy mezonini sanalgan ma'naviyat bolalarni uzluksiz ta'lim jarayonida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ta'lim tizimi rivojlanishining zamonaviy davri – maktabgacha birinchi bosqichida quyidagilarda namoyon bo'luvchi o'zgarishlar yuz bermoqda: maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asosi takomillashib bormoqda; muassasalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi shakllariga o'tmoqda; nodavlat tashkilotlar tarmoqlari kengaymoqda; ta'limning ilg'or texnologiyalari tatbiq etilmoqda; kadrlar malakasini oshirish tizimi takomillashmoqda; maktabgacha ta'lim muassasalarining alternativ shakllari tatbiq etilmoqda. Moliya institutlari ishtirokida investision loyihalar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarining innovasion va eksperimental faoliyati kengaymoqda.

Yunesko qarori bilan 1997 yilda “maktabgacha ta'lim” termini kiritilgan. Bu esa maktabgacha ta'limning nazariy asosini qaytadan ko'rib chiqish zarurligini belgilaydi. Shunga ko'ra, mazkur maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi 2017 yilgacha bo'lgan vazifalar, strategiyasi, maqsadi, tamoyillari, rivojlanish vazifalarini aniqlaydi.

Konsepsiyada davlatimizda, chet elda maktabgacha ta'lim rivojlanishining zamonaviy g'oyalari aks ettirilib, shuningdek, psixolog-olimlar, pedagoglar, defektologlar, ota-onalar jamoatchiligi fikrlari inobatga olingan.

Konsepsiyaning huquqiy asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasining quyidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlari hisoblanadi: O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi” Qonuni, va ta'lim sohasidagi boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlaridir.

Davlat bo'lajak fuqaro shaxsi shakllanishida bola ilk rivojlanishini muhim ahamiyatini his qilgan holda uzluksiz ta'lim tizimining birinchi davrida bolalarni tayyorlash uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishga kuch-qudrat sarflamoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang - barangdir.

Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni muvafaqqiyatli amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir.

Tarbiyachining maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishida M. Montessori, IMEN kabi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy interfaol usullardan foydalanishi samarali natija beradi. Pedagogik texnologiyalar bilan sug'orilgan mashg'ulotlarda bolalar o'zlarini erkin his qiladilar, barcha topshiriqlarni bajonudil bajaradilar. Bolalar egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tez va zo'riqishsiz, oson egallaydilar, o'ynab zavq oladilar, tafakkurlari rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish ma'lum maqsadga qaratilgan jarayon bo'lib, uning vazifasi, mazmuni va metodi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ruhiy fiziologik taraqqiyotini va ularning o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olgan holda tarbiyalashdir.

Umuman olganda maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya ish-larini rejalashtirish murakkab bo'lib, tarbiyachidan bolalarning ruhiy fiziologik taraqqiyot darajasi to'g'risidagi bilimlarni, ta'lim-tarbiya dasturini, ta'lim va tarbiyaning metod va usullarini bilishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyevning Sh.M. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr
2. Shodmonova Sh. “Maktabgacha ta'lim pedagogikasi”. (O`quv-metodik qo`llanma). 2012 yil.
3. Kayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T.: 2013 y.
4. Maxfuza Usmanova, [THE CONCEPT OF EDUCATIONAL PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS YIELD FACTORS](#), [Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №54 \(science.i-edu.uz, jspi.uz\)](#)

5. Norquziyeva, M. (2020). The role of educational technology in shaping the professional stability of students. Архив Научных Публикаций JSPI.